I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 094 taga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 891 ta yoki 22,3 foizga kamaygan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 686 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ularning 16,8 foizi Karmana tumani, 12,5 foizi Xatirchi tumani, 13,6 foizi Navoiy shahri, 11,5 foizi Navbahor tumani, 6,7 foizi Zarafshon shahri hissalariga to‘g‘ri keldi.

2024- yil 1- yanvar holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	faoliyat yuritayotgan	*shundan,*		*2023- yil yanvar- dekabr oylarida tashkil etilgan*
		yirik korxonalar	*kichik biznes*	
Jami	**3 094**	**26**	**3 068**	**686**
Navoiy sh.	648	12	636	93
Zarafshon sh.	232	1	231	46
G‘ozg‘on sh.	230	-	230	50
Konimex t.	91	1	90	35
Qiziltepa t.	320	1	319	40
Navbahor t.	264	3	261	79
Karmana t.	487	5	482	115
Nurota t.	259	1	258	61
Tomdi t.	82	1	81	17
Uchquduq t.	145	-	145	64
Xatirchi t.	336	1	335	86

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2024- yil 1- yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2023- yil yanvar- dekabr)



Sanoat – *bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi.*

2023- yil yanvar- dekabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 101 594,8 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 106,7 foizni tashkil etdi.

Jumladan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 12 037,8 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 96,1 foizni, qayta ishlash sanoati 82 683,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 107,6 foizni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havonikonditsiyalash 6 807,8 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 129,2 foizni, suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 66,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 127,0 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 3 812,4 mlrd. so‘mlik iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,5 foizga to‘g‘ri keldi.

Jumladan, 2 154,0 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, aroq-vino mahsulotlari va pivo, 1 658,4 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan mos ravishda 110,0 % va 100,9 %) ishlab chiqarildi.

.

2023- yil yanvar- dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
I. Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	**101 594,8**	**106,7**
Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	**12 037,8**	**96,1**
ulardan:		
Metall rudalarini qazib olish	11 681,1	98,9
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	356,7	46,7
Qayta ishlash sanoati	**82 683,1**	**107,6**
undan:		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	2 469,5	106,5
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3 155,4	107,1
Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	155,2	126,2

davomi

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	27,7	158,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,0	144,8
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	6 125,8	102,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	5,2	57,4
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 492,4	103,7
Metallurgiya sanoati	62 679,4	108,3
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3 282,4	97,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	141,8	108,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	684,0	160,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	754,8	72,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	570,2	88,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	3,6	13,5
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	133,7	4,2 m.
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	**6 807,8**	**129,2**
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	**66,1**	**127,0**
II. Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	**3 812,4**	**105,5**
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	2 154,0	110,0
nooziq-ovqat tovarlari	1 658,4	100,9

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 82 683,1 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 81,4 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda - 29,2 foizga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoatida - 27,0 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda – 7,6 foizga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,9 foizga pasayishi kuzatildi.

Yanvar-dekabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 812,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 foizga oshgan holda uning jami sanoatdagi ulushi 3,8 foizni tashkil etdi.

Yanvar- dekabr oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo‘yicha)

	O‘lchov birligi	*2023- yil yanvar-dekabr*	*O‘sish sur‘ati, % da*
Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar	*tn.*	531 719	167,1
Qayta ishlash sanoati			
Ammoniy sulfat	*ming. tn. azot*	3,6	101,9
Natriy gidroksidi (kaustik soda)	*ming. tn.*	57,1	92,1
Xlor	*tn.*	3 087,5	141,7
Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)	*ming. tn. azot*	257,0	88,6
Argon	*ming.m^3*	383,0	2,7 m.
Mochovina (karbamid)	*ming. tn. azot*	227,0	99,2
Suvsiz ammiak	*ming. tn*	682,0	92,0
Portlandsement	*tn.*	2 831 000	93,9
Vodorod xlorid	*ming. tn.*	48,7	117,6
So‘ndirilmagan va so‘ndirilgan ohak	*tn.*	87 240,1	110,3
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	*tn.*	7 723,0	118,3
Yogurt	*tn.*	18,0	116,4
Uzoq saqlanmaydigan xamirdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tortlar va pirojniylar	*tn.*	153,5	2,8 m.
Sariyog‘	*tn.*	4,9	103,6
Ishlov berilgan suyuq sut	*tn.*	517,2	86,6
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	*tn.*	93,5	112,7
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo‘lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari	*tn.*	1 155,2	186,6

Azot ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

(*2023- yilning yanvar-dekabr oylarida*)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo‘llanadi.

** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra*

Uglerod dioksidi ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonish mahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.



Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olinganida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.



** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 foizni (2022- yil yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o‘rta- yuqori texnologiyali – 9,7 foizni (10,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 83,1 foizni (82,4 %) va quyi texnologiyali – 7,0 foiz (6,9 %) ni tashkil etdi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 291 ta loyiha bo‘yicha 3 939,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 15,9 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 985 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

	2022- yil yanvar- dekabr	*2023- yil yanvar- dekabr*
Loyihalar soni, birlik	264	291
Korxonalar soni, birlik	58	71
Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m	3 252 744,0	3 939 920,0
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	13 503,3	15 915,8
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	416	985

2023- yil yanvar- dekabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsuloti		*Iste‘mol mahsulotlari*		*Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da*
	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati,) % da*	*mlrd. so‘m*	*o‘sish sur‘ati, % da*	
Jami	**101 594,8**	**106,7**	**3 812,4**	**105,5**	**7,7**
Navoiy sh.	86 223,0	107,1	642,8	96,0	1,7
Zarafshon sh.	533,0	109,3	250,6	106,9	99,0
G‘ozg‘on sh.	133,2	107,1	43,5	102,4	100,0
Karmana t.	9 431,9	102,3	709,9	117,2	23,2
Konimex t.	731,6	106,4	98,5	103,4	42,2
Qiziltepa t.	1 144,6	108,0	591,4	101,1	98,5
Navbahor t.	976,5	103,7	412,3	103,3	47,8
Nurota t.	398,7	108,2	284,4	103,5	86,2
Tomdi t.	62,5	108,1	38,3	103,1	100,0
Uchquduq t.	384,8	107,0	109,6	110,6	100,0
Xatirchi t.	1 575,0	107,6	631,1	110,4	49,6

Zarafshon shahrida (2022- yilning yanvar- dekabr oyiga nisbatan 109,3 %), Nurota tumani (108,2 %), Tomdi tumanida (108,1 %), Qiziltepa tumanida (108,0 %), Navoiy shahrida (107,1 %), Xatirchi tumanida (107,6 %), Navoiy shahrida (107,1 %), G‘ozg‘on shahrida (107,1 %) hamda Uchquduq tumanida (107,0 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) viloyat ko‘rsatkichidan (106,7 %) yuqoriligini qayt etishimiz mumkin.

Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Karmana tumanida (2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 117,2 %), Uchquduq tumanida (110,6 %), Xatirchi tumanida (110,4 %) hamda Zarafshon shahrida (106,9 %) sezilarli darajada oshdi.



2023- yil yanvar- dekabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hamda xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so‘m		Xalq iste‘mol mollari, ming so‘m	
	2022	2023	2022	2023
Jami	**80 786,1**	**95 361,7**	**3 460,1**	**3 578,5**
Navoiy sh.	466 327,8	543 602,9	4 368,5	4 052,3
Zarafshon sh.	4 219,7	6 093,8	2 724,0	2 865,7
G‘ozg‘on sh.	8 405,8	14 521,0	4 706,9	4 739,1
Karmana t.	60 963,8	68 731,4	4 521,0	5 173,4
Konimex t.	16 353,4	19 564,4	2 569,2	2 632,8
Qiziltepa t.	10 361,7	7 132,3	3 707,0	3 685,2
Navbahor t.	6 794,9	8 148,0	3 386,4	3 440,0
Nurota t.	3 466,7	4 491,0	3 146,9	3 203,6
Tomdi t.	3 019,9	3 992,5	2 378,1	2 446,1
Uchquduq t.	7 939,5	9 812,3	2 555,6	2 794,6
Xatirchi t.	2 886,7	7 446,6	2 751,5	2 984,2



2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘m



2023- yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Karmana tumaniga (5 173,4 ming so‘m), G‘ozg‘on shahriga (4 739,1 ming so‘m), Navoiy shahriga (4 052,3 ming so‘m) Qiziltepa tumaniga (3 685,2 ming so‘m), Navbahor tumaniga (3 440,0 ming so‘m), Nurota tumaniga (3 203,6 ming so‘m) va Xatirchi tumaniga (2 984,2 ming so‘m) to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 794,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida bu ko‘rsatkich 5,7 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati), % da	mlrd. so‘m	Ulushi, % da
Jami	**101 594,8**	**106,7**	**5 794,6**	**5,7**
Navoiy sh.	86 223,0	107,1	4 417,8	5,1
Zarafshon sh.	533,0	109,3	25,7	4,8
G‘ozg‘on sh.	133,2	107,1	8,3	6,3
Karmana t.	9 431,9	102,3	1 187,8	12,6
Konimex t.	731,6	106,4	14,1	1,9
Qiziltepa t.	1 144,6	108,0	15,0	1,3
Navbahor t.	976,5	103,7	55,2	5,7
Nurota t.	398,7	108,2	6,7	1,7
Tomdi t.	62,5	108,1	-	-
Uchquduq t.	384,8	107,0	1,0	0,3
Xatirchi t.	1 575,0	107,6	63,0	4,0

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da

2022- yil yanvar- dekabr



2023- yil yanvar- dekabr



Viloyatning boshqa korxonalari
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan 7 795,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,7 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



2023- yil yanvar- dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), G‘ozg‘on shahri (100,0 %), Zarafshon shahri (99,0 %), Qiziltepa (98,5 %), Nurota (86,2 %), Xatirchi (49,6 %), Navbahor (47,8 %), Konimex (42,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Navoiy shahriga (1,7 %) hamda Karmana tumaniga (23,2 %) to‘g‘ri keldi.

Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

Iste‘mol mollari - asosan shaxsiy iste‘mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste‘mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yalpi mahsulot;

Mahalliylashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).